

HIKOYA KOMPOZITSIYASIDA AN'ANAVIYLIK VA SIFAT O'ZGARISHLAR

Shukurova Bahor Boltayevna

Termiz muhandislik - texnologiya instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisda Shukur Xolmirzayev hikoyalari kompozitsiyasida an'anaviylik, sifat o'zgarishlar masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Kompozitsiya, janr, parallel, hikoya, mahorat, o'xshash jihatlar, tabiat tasviri, o'ziga xoslik, tezkor syujet.

KIRISH

Yozuvchi muayyan turmush manzarasini aks ettirar ekan, uni o'quvchi ko'z o'ngida butun to'laligi va yaxlitligi bilan namoyon qilish uchun asarini ma'lum shaklga soladi. Adabiy asaming barcha qismlami o'zaro birlashtirib turuvchi, muayyan hayotni yaxlitlikda va muallif nuqtayi nazariga mos holda obrazli aks ettirishga yordam beruvchi qurilishi **kompozitsiya** deb ataladi. Kompozitsiya nihoyatda mazmundor tushunchadir. U o'zining murakkab, biroq aniq qonuniyatlariga ega. Biror asar kompozitsiyasi, ya'ni tuzilishi haqida fikr yuritish uchun undagi voqealar, hodisa va shaxslar nima maqsadda kiritilgani xususida o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Maqsad aniq boimasa, harakat ham, ya'ni kiritilgan voqealar, ularda qatnashadigan shaxslar ham tartibsiz boiadi. Shu sababli asar kompozitsiyasini aniqlash uchun ma'lum birlikda turgan narsa, voqea va shaxslarning nima maqsad bilan birlashganiga diqqat qilish lozim. Shu narsa aniqlanmasa, asardagi birlikni va uning qismlari bajaradigan vazifasini anglab olish mushkul.

Adabiyotda, uning biror-bir turida, janrida badiiy kashfiyotlar yaratishni oldiga maqsad qilib qo'ygan so'z san'atkori betakror iste'dodga va o'zligini anglash darajasiga ega bo'lishi lozim. Shundagina yozuvchi o'z fe'l-atvoridan kelib chiqib, alohida xususiyat va belgilarga ega xarakter yarata oladi. Yozuvchi o'z uslubi bilan boshqalardan qanchalik ajralib tursa, u yaratgan obrazlar, xarakterlar ham asar kompozitsiyasida originalligi bilan alohidalik kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Shukur Xolmirzaev o'zbek adabiyotida hikoyanavis yozuvchi sifatida shuhrat topgan. Biroq adib hikoyalari orasida novellistik xususiyatlarini o'zida jamlagan asarlari "saylanma"sining juda ozchilikni tashkil etadi. Masalan, yozuvchi 1-jildidagi hikoyalar to'plamiga kiritilgan "Ot egasi", "Tikan orasidagi odam", "Qariya", "Shudring tushgan bedazor", "Kimsasiz hovli", "Bodom qishda gulladi", "Tabassum", "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" kabi bor-yo'g'i sakkizta asarini janriy xususiyatlariga ko'ra hikoya janriga kiritish mumkin [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yozuvchining "Shudring tushgan bedazor" hikoya si hajman ancha katta bo'lib, Mopassan hikoyalarini eslatadi. Hikoyada ikkita murakkab xarakter tasvirlangan. Yozuvchining o'zi ham shuni e'tiborga olib, sarlavha tagidan qavs ichida "Ikki injiq haqida hikoya" deb yozib qo'ygan.

Hikoyada shunchaki maishiy hayot tarzi ifoda etilgan. Asar hajmining kattaligi bois muallif xarakterning shakllanish jarayonini ham ko'rsatishga muvaffaq bo'lingan. Yozuvchi chizgilaridan Tursunoyning ham, Ikromjonning ham bolalik, o'smirlik paytlarini, qanday oilada kamol topganligini bilib olamiz. Tursunoy Ikromjonga o'z roziligi bilan, yaxshi ko'rib turmushga chiqqan.

"Ular hech narsadan nolimasa ham bo'ladi. Kunlari el qatori o'tib turibdi. Oilalarida ba'zan shunday inoqlik, mehr-muhabbat paydo bo'ladiki, olti yillik er-xotinni kecha topishgan Tohir-Zuhra deysiz.

Lekin, ba'zan..." [2]

Shunday boshlangan turmushga darz keta boshlaydi. Tursunoydagi beqarorlik oilaning mustahkamligiga, osoyishtaligiga ta'sir eta boshlaydi. Tursunoydagi qaysarlik, cho'rtkesarlik kuchaygani sari, Ikromjondagi mo'minqobillik xarakteri sabr qilish, ezilish, adoqsiz o'ylarga cho'mish kabi holatlarni kasb eta boradi. Hammasidan o'tib tushadigani, erkak kishini "sindiradigan" bir gap — "tuzukroq yigitga chiqmaganidan afsusda ekanligini" eshitgach, Ikromjon tamom bo'ladi.

Ikromjon xarakterida endi o'zgacha holatlar ko'zga tashlanadi. Uyidan bezib, o'z tengdoshlaridan tasalli topishga chog'lanadi. Shunday kunlarning birida ichib keladi. Albatta, rangi-ro'yi bir hol, ustlari loy bo'lgan edi. Bunga Tursunoyning munosabatini ko'raylik [4]:



“ — Tursunoy erining yoqasidan ushlab yuziga tikildi-yu, burni jiyrilib, afti burishib, birdan tislandi. — Mast! — dedi yig‘lamsirab. — Piyonista bo‘pti! Shunisi kam edi... Voy do- od, qaerga boray? — u yana otilib erining oldiga bordi.

— Pulni qaerdan topding? — u senladi va senlab davom qildi: — Ayt deyapman!.. Hali o‘zingni oppoq qilib ko‘rsatarsan, hali davlatning odamiman, deysan! Qaerdan topding pulni..?”

Parchadan ham ko‘rinib turibdiki, Tursunoy ayol sifatida, oilada ayolning o‘rni, oila mustahkamligiga uning qo‘shgan hissasi kabi milliy tushunchalarga yot harakatlar qiladi. Yozuvchining xarakter yaratishdagi mahorati shundaki, Tursunoyning Ikromjon bilan qilgan mojarosi dramatik sahnaning o‘zginasi. O‘qib turib yoqa ushlaysiz. Erkak kishi bo‘lsangiz do‘zax azoblarini his qilasz. Insoniy tabiatga ega ayol kishi bo‘lsangiz “tavba” deyishdan o‘zingizni tiya olmaysiz. Yozuvchi mahorati sizni shu holatga sola oladi.

Tursunoy xarakteridagi birgina holatga e‘tibor qilaylik.

“...Tursunoy shu kecha yig‘lab-yig‘lab yotdi. Milisa chaqirgani uchun o‘zini qarg‘adi. “Vahimachi bo‘lmay o‘lay, erkak odam ichadi-da! — dedi. — Bu gap birovlarining qulog‘iga yetsa, nima degan odam bo‘laman! Erini qamatgan... Koshki meni urgan bo‘lsa! Beozorgina, “kechir” dedi... Boyoqish... Shunday mayin, mo‘mingina... Mening xarxashalarimga chidab kelyapti. Ikki dunyoda bunday erkak topilmaydi... O‘zim aybdorman... Uydagi sirni ko‘chaga chiqargan xotin xotinmi? [5]”

Hikoyadagi kutilmaganlik, g‘ayritabiiylik shunda ham ko‘rinadiki, Tursunoyning o‘z tilidan aytilgan pushaymonlari uni go‘zal, madaniyatli, or- nomusli, andishali ayolga aylantiradi. Biroq voqealar rivoji bu faqat o‘tkinchi holat ekanligini, Tursunoyning bu holati bahor yomg‘iri kabi beqarorligini ko‘ramiz. Muallif voqealar rivojiga ota-onalar, yor-birodarlar kabi biror maslahatgo‘y kishilarni aralashtirmaydi. Shuning uchun ham Tursunoy xarakterida ijobiy holatlar uning ayollik “fazilatlarini” qarshisida o‘jizlik qilib qoladi. Muallif ularni shu maqsadda aralashtirmaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shukur Xolmirzaening mazkur janr talablari darajasidagi mahoratifojiaviylik bilan yengil yumor orasidagi inson taqdirini ajoyib tasvirlarda, rangin lavhalarda



ifodalanishida ko‘rinadi. Tanlagan xarakterlar o‘z xatti- harakatlari bilan novellistik xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Erkin xudoyberdiyev Adabiyotshunoslikka kirish — Toshkent, 2007
2. Rasulov A. Badiiylik — bu zavol yangilik. — Toshkent, 2007.
3. Xolmirzaev Sh. Hikoyalar. 1-jild. — Toshkent: Sharq, 2003.
4. Qo‘shjonov M. Ma‘no va mezon. — Toshkent, 1974.
5. Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek hikoyasi//O‘zbek tili va adabiyoti. 2012 yil, 4-son.
6. Mamajonov S. Tanqidchi va adabiy jarayon. O‘zbek adabiyoti tanqidi(antologiya). — T.: Turoniqbol. 2011.